Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 15-sentyabr, № 191 (9362) Seshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

O‘ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR ALOHIDA STRATEGIK SHERIKLIKNING YANGI BOSQICHIGA KO‘TARILMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Prezidenti Li Chje Myonning taklifiga binoan davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo‘lib turibdi.



Davlatimiz rahbari 13-sentabr kuni rafiqasi hamrohligida davlat tashrifi bilan Seul shahriga keldi.

Koreya Respublikasi Harbiy-havo kuchlarining Seuldagi aviabazasida oliy martabali mehmonlarni tantanali kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Prezidentimiz sharafiga Faxriy qorovul saf tortdi, artilleriya to‘plaridan salyut berildi.

O‘zbekiston Prezidentini Koreya Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri Ku Yun Chxol hamda boshqa rasmiylar kutib oldi.

Davlat tashrifi bilan Seul shahriga kelgan Prezident Shavkat Mirziyoyevni Koreya Respublikasida mehnat qilayotgan va tahsil olayotgan vatandoshlarimiz samimiy qarshi oldilar.

Davlatimiz rahbari yurtdoshlarimiz bilan suhbatlashib, ularning faoliyati, o‘qishi va kelajak rejalari bilan qiziqdi.

Muloqot chog‘ida mamlakatimizda kechayotgan yangilanishlar, vatandoshlarimizning orzu-intilishlari hamda tashrif doirasida bo‘lajak tadbirlarning ahamiyati haqida fikr almashildi.

Prezidentimiz ularga ish va o‘qishida muvaffaqiyatlar tilab, Koreyada egallanayotgan zamonaviy bilim, ko‘nikma va tajriba kelgusida mamlakatimiz ravnaqi va xalqimiz farovonligiga xizmat qilishiga ishonch bildirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Koreya Respublikasiga davlat tashrifi doirasidagi tadbirlar 14-sentabr kuni yurt ozodligi va mustaqilligi yo‘lida jon fido qilgan vatanparvarlar xotirasiga ehtirom ko‘rsatishdan boshlandi.

Davlatimiz rahbari rafiqasi bilan birga Seuldagi Milliy yodgorlik majmuasiga tashrif buyurib, Xotira ustuni poyiga gulchambar qo‘ydi hamda Faxriy mehmonlar kitobida qayd yozib qoldirdi.

Koreya Respublikasi Prezidentining “Chong Va De” qarorgohida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olishga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbari va rafiqasini Prezident Li Chje Myon va rafiqasi qarshi oldilar.

Oliy martabali mehmon sharafiga Faxriy qorovul saf tortdi. Ikki davlat madhiyalari yangradi. Prezidentlar qorovul safi oldidan o‘tib, rasmiy delegatsiyalar a’zolarini qutladilar.

Davlatimiz rahbari “Chong Va De” saroyining Faxriy mehmonlar kitobida qayd yozib qoldirdi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Seul shahrida Koreya Respublikasi Prezidenti Li Chje Myon bilan tor doirada hamda rasmiy delegatsiyalar a’zolari ishtirokida muzokara o‘tkazdi.

O‘zbekiston — Koreya alohida strategik sherikligini yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Koreya Respublikasi Prezidenti davlatimiz rahbarini samimiy qutlab, ushbu tashrif ikki mamlakat o‘rtasidagi do‘stlik va o‘zaro hurmat tamoyillari asosida rivojlanib kelayotgan munosabatlar tarixida muhim voqea ekanini qayd etdi.

O‘z navbatida, O‘zbekiston yetakchisi Koreya Respublikasi o‘tgan yillar davomida yurtimizning ishonchli do‘sti va eng muhim iqtisodiy hamkorlaridan biriga aylanganini ta’kidladi.

Bu borada tovar aylanmasi va investitsiyalar ko‘rsatkichlari o‘sib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zbekistonda Koreya sarmoyasi ishtirokidagi 700 dan ortiq qo‘shma korxonalar faoliyat yuritmoqda.

Koreya xalqaro hamkorlik agentligi, Eksimbanki va “EDCF” jamg‘armasi bilan hamkorlik doirasida tibbiyot va sog‘liqni saqlash, sanoat, AKT, qishloq va suv xo‘jaligi, energetika, infratuzilma, ta’lim sohalarida o‘nlab loyihalar amalga oshirilmoqda.

Muzokaralar davomida parlamentlar, vazirlik va idoralar, hudud rahbarlari hamda ishbilarmon doiralar o‘rtasidagi aloqalarni faollashtirish zarurligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari Koreya Respublikasi bilan iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirishning beshta ustuvor yo‘nalishini aytib o‘tdi.

Bular — savdo aloqalarini kengaytirish, investitsiyalar hajmini oshirish, muhim minerallar, transport va infratuzilma sohalarida hamkorlikni rivojlantirish.

Joriy tashrif yakunlari bo‘yicha investitsiya portfeli ko‘lami yanada kengayadi. Xususan, umumiy qiymati qariyb 12 milliard dollarlik istiqbolli loyihalar tayyorlangan. Koreya Eksimbanki bilan Strategik hamkorlik dasturi qabul qilingan.

Tomonlar Koreyaning ilg‘or texnologiyalari hamda Yangi O‘zbekistonning resurslar va sanoat borasidagi salohiyatiga asoslangan mustahkam innovatsion va texnologik alyansni shakllantirishga alohida e’tibor qaratdilar.

Alyans faoliyatini axborot texnologiyalari va kiberxavfsizlik sohalari hamda tibbiyot, sog‘liqni saqlash va farmatsevtika sanoatida yuqori texnologiyali va raqamli yechimlarni joriy etish kabi ustuvor yo‘nalishlarga qaratish taklif etildi.

Harbiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish, jumladan, idoralararo aloqalarni kengaytirish, qo‘shma tadbirlar tashkil etish va harbiy mutaxassislarni o‘qitishga tayyorlik bildirildi.

Tashrif arafasida ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlik tarixida ilk bor o‘tkazilgan Hududlararo forum natijalari yuqori baholandi. Keyingi forumni Samarqand shahrida o‘tkazishga kelishib olindi.

Prezidentlar muzokaralar davomida ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga alohida urg‘u berdilar.

O‘zbekistonda Janubiy Koreya universitetlarining to‘rtta filiali faoliyat yuritib, pedagogika, AKT, muhandislik, raqamli texnologiyalar hamda zamonaviy iqtisodiyotning boshqa ustuvor yo‘nalishlarida yuqori malakali kadrlarni tayyorlayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Bundan tashqari, O‘zbekistonda “KOICA” ko‘magida tashkil etilgan 5 ta kasb-hunarga o‘qitish markazi samarali faoliyat yuritmoqda. Ushbu markazlar yoshlarimizga kelgusida qobiliyati va salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun o‘z bilim va ko‘nikmalarini oshirishiga keng imkoniyatlar taqdim etmoqda.

Kadrlar tayyorlash bo‘yicha amaliy tajriba almashishda ikki mamlakat oliy ta’lim muassasalari rektorlari forumi muhim o‘rin tutishi alohida ta’kidlandi.

Munosabatlarni rivojlantirishda xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro anglashuv va do‘stlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qiladigan madaniy almashinuv muhim ahamiyatga ega ekani qayd etildi.

Davlatimiz rahbari ko‘p sonli koreys diasporasi O‘zbekiston ko‘p millatli oilasining ajralmas qismi hamda mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o‘rtasidagi “ma’naviy ko‘prik” ekanini ta’kidladi.

Ushbu o‘ziga xos gumanitar aloqalarni yanada rivojlantirish maqsadida 2027-yilni “Madaniyat va o‘zaro almashinuvlar yili” deb e’lon qilish hamda qo‘shma madaniy-gumanitar tadbirlarni o‘tkazish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Yakunda muhokama qilingan mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan tomonlarning pozitsiyalari yaqinligi ham tasdiqlandi.

Seul shahrida o‘tkazilgan oliy darajadagi muzokaralar yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Koreya Respublikasi Prezidenti Li Chje Myon huzurida ikki tomonlama hujjatlarni almashish marosimi bo‘lib o‘tdi.

To‘plamdan savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, gumanitar va boshqa sohalardagi sheriklikni yanada rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan shartnoma va bitimlar o‘rin oldi.

Bular — transport, aviatsiya, qishloq xo‘jaligi, turizm, sun’iy intellekt, texnik ko‘mak, oliy, maktab va maktabgacha ta’lim, tibbiy mahsulotlarni tartibga solish, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, intellektual mulkni himoya qilish, arxiv ishi va boshqa sohalardagi hamkorlikka oid hujjatlar.

“Chong Va De” qarorgohida bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi muzokaralardan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi yetakchilari hamda rafiqalari muloqotni Prezident Shavkat Mirziyoyev sharafiga Prezident Li Chje Myon nomidan uyushtirilgan davlat qabulida davom ettirdilar.

Samimiy mehmondo‘stlik va o‘zaro hurmat muhiti davlat rahbarlari o‘rtasidagi yuksak ishonch, ikki xalq yaqinligi hamda O‘zbekiston — Koreya do‘stligi mustahkam ekanining yana bir yorqin ifodasi bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Koreya Respublikasiga davlat tashrifi davom etmoqda.

O‘zA.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

Prezident Shavkat MIRZIYOYEV:

KATTA VA AHAMIYATLI ISHLAR BIRGALIKDA BAJARILSAGINA NATIJA MUVAFFAQIYATLI CHIQADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Koreya Respublikasiga davlat tashrifi munosabati bilan mamlakatning nufuzli nashrlari — “Chosun Ilbo”ning ingliz tilidagi platformasi “The Chosun Daily” hamda “The Korea Herald” gazetalarida davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston va Koreya Respublikasi: o‘zgarishlar davrida kelajak sari intilayotgan hamkorlik” maqolasi chop etildi.

THE CHOSUN Daily

Maqola avvalida Prezidentimiz Samarqanddagi mashhur Afrosiyob saroyi devorlarida aks etgan suratlar misolida Markaziy Osiyo va Koreya yarimoroli xalqlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar haqida so‘z yuritar ekan, hamkorlikning asrlar davomida shakllangan ana shu ko‘p qirrali va boy tajribasi zamonlar osha o‘z ifodasini topib, bugun o‘zaro hurmat va samarali sheriklik uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilayotganini ta’kidlaydi. Endilikda O‘zbekiston — Koreya munosabatlari alohida strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilganiga, buning zamirida noyob inson omili, mushtarak taqdir va yaqinlik mujassamligiga e’tibor qaratib, bir necha avlod davomida O‘zbekiston zaminini ikkinchi Vatani deb bilgan, minglab kishilardan iborat bunyodkor va mehnatkash koreys diasporasi (koryo-saram) ko‘p millatli jamiyatimizning ajralmas qismiga aylanganini aytadi. Ularning mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga, jamiyatdagi barqarorlikni mustahkamlashga, amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni qo‘llab-quvvatlashga qo‘shayotgan beqiyos hissasini e’tirof etadi.

Maqolada keltirilishicha, O‘zbekiston va Koreya Respublikasi ko‘p yillik vaqt sinovidan o‘tgan ishonchli hamkorlargina emas, balki mustahkam, har tomonlama va o‘zaro manfaatli munosabatlar bilan bog‘langan yaqin do‘st davlatlardir. Qaror topgan ishonch va o‘zaro hurmat tufayli hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlarini birgalikda belgilash, ikki mamlakatning uzoq muddatli manfaatlariga javob beradigan, eng muhimi, fuqarolarimizga sezilarli naf keltiradigan yechimlarni topish imkoniyatiga egamiz.

Shuni alohida ta’kidlash muhimki, O‘zbekiston Markaziy Osiyoda Koreya Respublikasining eng yaqin va ishonchli savdo-iqtisodiy sheriklaridan biriga aylanib ulgurdi. Bozorimiz jadal sur’atda kengayib bormoqda. Janubiy Koreya texnologiyalari va investitsiyalari esa aniq natija berib, yangi ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy yechimlarni joriy etish va o‘zaro iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

So‘nggi yillarda ikki mamlakat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi besh barobar oshdi. Koreya Respublikasining O‘zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan jami investitsiyasi hajmi 8 mlrd. dollardan ortdi. Ayni paytda mamlakatimizda 700 dan ziyod qo‘shma korxona va loyihalar faoliyat yuritmoqda. Koreya xalqaro hamkorlik agentligi, Koreya Eksimbanki va jamg‘armalari bilan ko‘p yillik samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Ular bilan birga loyihalar portfeli 3,5 mlrd. AQSh dollaridan oshdi.

The Korea Herald

Bir paytlar Koreya Respublikasining iqtisodiy mo‘jizasi bir avlod hayoti davomida mamlakatni, asosan, agrar davlatdan taraqqiy etgan, yuqori texnologiyalarga asoslangan farovon iqtisodiyotga aylantirdi. Bugun O‘zbekistonda ham shunga o‘xshash jadal sur’at kuzatilmoqda. So‘nggi o‘n yilda iqtisodiyotimiz hajmi ikki yarim barobardan ziyod o‘sdi.

(Davomi 2-betda).

Parlament nazorati

AHOLI UCHUN QULAY SHAROITLAR YARATISH – USTUVOR MAQSAD

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi ishchi guruh Navoiy viloyatida kambag‘allikni qisqartirish, aholi bandligini ta’minlash, oilalar daromadlarini oshirish hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan ishlarni o‘rgandi.

Ishchi guruh a’zolari dastlab Qiziltepa tumanidagi Azizobod va Zarmitan, Karmana tumanidagi Sardoba, Nurota tumanidagi Saidato, G‘afur G‘ulom va Mustaqillik mahallalarida istiqomat qilayotgan ehtiyojmand oilalar xonadonlarida bo‘ldi. Ularning ijtimoiy-iqtisodiy holati, mavjud muammolari va oilalarni kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar bilan tanishildi.

Yangi tizim asosida viloyatda kambag‘allikni qisqartirish va yil yakuniga qadar ishsizlikdan xoli hududga aylantirish maqsadida ishsiz fuqarolar hamda kambag‘al oilalarni qayta xatlovdan o‘tkazish boshlangan. Ushbu jarayonda har bir oilaning holati va talab-istaklari batafsil o‘rganilmoqda.

2

Davlat budjeti ijrosi:

MUNOZARALARDA QANDAY MASALALAR KO‘TARILDI?

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig‘ilishlari bo‘lib o‘tdi. Ularda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlarining joriy yil birinchi yarmidagi ijrosi, shuningdek, quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari atroflicha muhokama qilindi.

Fraksiyalar hayoti

Barqaror iqtisodiy o‘sish — izchil islohotlar samarasi

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida ta’kidlanganidek, jahon iqtisodiyotida global xatarlar, tashqi bozorlardagi o‘zgarishlar va noaniqliklar kuchayib borayotgan bir sharoitda mamlakatimiz iqtisodiyoti barqaror o‘smoqda.

4

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 15-sentyabr

Prezident Shavkat MIRZIYOYEV:

KATTA VA AHAMIYATLI ISHLAR BIRGALIKDA BAJARILSAGINA NATIJA MUVAFFAQIYATLI CHIQADI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 30 foizga yetdi. Iqtisodiyotning ochiqligi va tarkibiy transformatsiyasi qariyb 40 million nufusga ega ulkan ichki bozorimizning jozibadorligini sezilarli darajada oshirdi.

“Shuni alohida ta’kidlamoqchimanki, — deb yozadi Prezidentimiz. — O‘zbekiston uchun Koreya Respublikasi bilan munosabatlar biz amalga oshirayotgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi va markazida inson, uning qadr-qimmati, huquq va imkoniyatlari turgan zamonaviy, ochiq va taraqqiy etgan davlat — yangi O‘zbekistonni barpo qilish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yo‘lda Seulning izchil va amaliy ko‘magini yuksak qadrlaymiz. Koreya tomoni ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya borasidagi boy tajribasini biz bilan o‘rtoqlashib kelmoqda. Koreya Respublikasi rahbariyati O‘zbekistonning iqtisodiy va siyosiy yutuqlari, mamlakatimizning xalqaro nufuzi va obro‘si yuksalayotgani, investitsiyaviy jozibadorligi tobora ortib borayotganidan samimiy quvonib, bularning barchasini ko‘p qirrali hamkorlikni yanada chuqurlashtirish uchun yanada qulay zamin sifatida baholayotgani, ayniqsa, bizni mamnun etadi”.

Xalqlarimizni birlashtirgan mushtarak qadriyatlar

O‘zbek xalqining “Yolg‘iz otning changi chiqmas” degan maqoli bor. Koreyada esa xuddi shu naql boshqacha ifoda etiladi: “Hatto bir varaq qog‘ozni ham ikki kishi birga ko‘tarsa, yengilroq bo‘ladi”. Yevroosiyoning turli hududida tug‘ilgan bu ikki maqol til jihatdan farq qilsa-da, bir xil chuqur ma’noni anglatadi: haqiqatan ham, katta va ahamiyatli ishlar birgalikda bajarilsagina natija muvaffaqiyatli chiqadi.

Bugun O‘zbekiston global qo‘shilgan qiymat zanjirlariga chuqur integratsiyalashishga intilmoqda. Janubiy Koreya esa ularni keng diversifikatsiya qilishdan manfaatdor. Biz o‘z hududimizda yuqori texnologiyalarga asoslangan, ishlab chiqarish jarayonlari chuqur mahalliylashtirilgan korxonalarni tashkil etishni istagan koreys kompaniyalari uchun zarur sharoitlarni yaratishga tayyormiz.

Uzoq istiqbolni ko‘zlab, biz bugunning o‘zidayoq ertangi kunning texnologik kun tartibini shakllantirmoqdamiz. Innovatsiyalar ekotizimini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni izchil yaratmoqdamiz. Bu yaqin o‘n yilliklarda davlatlarning raqobatbardoshligini belgilab beradigan asosiy yo‘nalishlardandir. Shu nuqtayi nazardan, hamkorligimizning sun’iy intellekt, strategik ahamiyatga ega materiallar va yarimo‘tkazgichlar ishlab chiqarish, robototexnika, elektr transporti, biofarmatsevtika, zamonaviy kimyo, “aqlli” qishloq xo‘jaligi va intellektual shaharlar kabi sohalari biz uchun alohida istiqbolli ko‘rinmoqda.

Biroq muallifning fikricha, hech qanday texnologiya insonning o‘rnini bosa olmaydi. Shu bois Yangi O‘zbekiston strategiyasida ta’lim va inson kapitali markaziy o‘rinni egallaydi. Biz Koreya universitetlari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish, qo‘shma ta’lim dasturlarini rivojlantirish, akademik mobillikni yo‘lga qo‘yish, ilmiy laboratoriyalar va ilg‘or ishlanmalar markazlarini tashkil etishdan manfaatdormiz.

Munosabatlarimizning yana bir nihoyatda qimmatli resursi — mentalitetimiz, hayotiy qadriyatlarimiz, an’analarimiz va hayotga munosabatimizdagi ajoyib o‘xshashlikdir. O‘zbek va koreys xalqlari inson qadr-qimmatini birdek yuksak qadrlaydi, oilani ulug‘laydi, kattalarni hurmat qiladi, ajdodlarni e’zozlaydi, mehnatsevarlik, matonat va maqsad sari intilish kabi fazilatlarni avloddan-avlodga yetkazishga intiladi.

Bizni farovon kelajak o‘zidan o‘zi kelib qolmasligi, uni o‘z qo‘limiz, bilimimiz va har kunlik mehnatimiz bilan barpo etishimiz kerakligi haqidagi yana bir muhim mushtarak tushuncha birlashtiradi. Qarashlarimizdagi ana shu yaqinlik xalqlarimizga bir-birini oson tushunish va bir-birining yutuqlarini samimiy quvonch bilan qabul qilish imkonini beradi.

Umumiy manfaatlarga asoslangan sheriklik

Prezidentimiz maqolada bugun biz yangi tarixiy bosqich ostonasidaligimizni, alohida strategik sheriklik munosabatlarimiz ikki tomonlama hamkorlik doirasidan chiqib, Koreya Respublikasi va butun Markaziy Osiyo mintaqasi o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar rivojining yangi bosqichini aks ettirayotganini ta’kidlaydi.

Bu yangi voqelikning muhim ifodalaridan biri “Markaziy Osiyo — Koreya Respublikasi” mintaqalararo muloqot mexanizmi doirasidagi hamkorlikning izchil chuqurlashib borayotganidir. Ilk bor 2007-yilda Seulda o‘tkazilgan mazkur muloqot “Markaziy Osiyo plyus” ko‘p tomonlama formatidagi eng azaliy va talab yuqori bo‘lgan forumlardan biridir.

So‘nggi o‘n yilda muloqot doirasida sohaviy vazirlik va idoralar o‘rtasidagi hamkorlik sezilarli darajada mustahkamlandi. Endi esa biz navbatdagi qadamni tashlashga tayyormiz. Joriy yil 16-sentabr kuni Seulda tarixda ilk bor muloqotdagi barcha — olti ishtirokchi davlat rahbarlari qatnashishi kutilayotgan “Markaziy Osiyo — Koreya Respublikasi” sammiti bo‘lib o‘tadi.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston siyosiy muloqotni chuqurlashtirish, amaliy hamkorlikni kengaytirish va sheriklikning yangi, samarali mexanizmlarini shakllantirishga qaratilgan qator dolzarb tashabbuslarni ilgari surish niyatida. Bu tashabbuslar “Markaziy Osiyo — Koreya Respublikasi” formatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, uni yanada tizimli, izchil va uzoq muddatli mintaqaviy ustuvor vazifalarga yo‘naltirilgan mexanizmga aylantirishga qaratilgan.

Davlatimiz rahbari fikriga ko‘ra, bugun xavf va tahdidlarga to‘la, tez o‘zgarayotgan va tobora parchalanib borayotgan dunyoda aynan umumiy manfaatlarga asoslangan sheriklik tobora dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Bunday hamkorlik munosabatlari mintaqalar o‘rtasida yangi ko‘priklar barpo etish, yanada barqaror aloqalarni shakllantirish, rivojlanish va mintaqalar iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish uchun yangi salohiyatlarni birgalikda kashf etish imkonini beradi.

> *“Shuni alohida ta’kidlamoqchimanki, — deb yozadi Prezidentimiz. —O‘zbekiston uchun Koreya Respublikasi bilan munosabatlar biz amalga oshirayotgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi va markazida inson, uning qadr-qimmati, huquq va imkoniyatlari turgan zamonaviy, ochiq va taraqqiy etgan davlat — yangi O‘zbekistonni barpo qilish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yo‘lda Seulning izchil va amaliy ko‘magini yuksak qadrlaymiz. Koreya tomoni ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya borasidagi boy tajribasini biz bilan o‘rtoqlashib kelmoqda. Koreya Respublikasi rahbariyati O‘zbekistonning iqtisodiy va siyosiy yutuqlari, mamlakatimizning xalqaro nufuzi va obro‘si yuksalayotgani, investitsiyaviy jozibadorligi tobora ortib borayotganidan samimiy quvonib, bularning barchasini ko‘p qirrali hamkorlikni yanada chuqurlashtirish uchun yanada qulay zamin sifatida baholayotgani, ayniqsa, bizni mamnun etadi.”*

Mintaqalararo bunday hamkorlikni rivojlantirish O‘zbekistonning ochiq va pragmatik tashqi siyosat tamoyillariga, qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli mintaqaviy hamda xalqaro hamkorlik orqali Markaziy Osiyoda tinchlik, xavfsizlik va barqaror rivojlanishni mustahkamlash konsepsiyasiga to‘la hamohangdir.

Shu o‘rinda Prezidentimiz bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasida shaklangan do‘stona hamkorlik muhiti haqida alohida to‘xtaladi.

“Eng mustahkam munosabatlar tomonlarning uzoq muddatli manfaatlari va strategik qarashlari mushtarak bo‘lganida shakllanishi tarixdan yaxshi ma’lum, — deydi davlatimiz rahbari. — Bugun mamlakatlarimiz o‘rtasidagi bunday mushtaraklik tobora mustahkamlanib bormoqda. Ayniqsa, so‘nggi o‘n yilda Markaziy Osiyoda Seul va boshqa sheriklar bilan to‘laqonli hamkorlik o‘rnatish uchun yanada qulay sharoit shakllandi. Mintaqada davlatlar o‘rtasidagi ishonchli munosabatlar mustahkamlandi. O‘zaro savdo, iqtisodiyot, energetika va transport bog‘liqligi, transchegaraviy hamkorlik tobora rivojlanmoqda. Markaziy Osiyo ulkan umumiy bozor, salmoqli resurs, ishlab chiqarish va tranzit salohiyatiga ega, jadal sur’atda taraqqiy etayotgan va tobora jipslashib borayotgan mintaqaga aylanmoqda. Mintaqa mamlakatlari iqtisodiyoti yuqori o‘sish sur’atini namoyon etmoqda: o‘rtacha iqtisodiy o‘sish sur’ati 7 foizdan ortiq. Mintaqaning yalpi ichki mahsuloti hajmi 2025-yilda 500 mlrd. dollardan oshdi. Bu ko‘rsatkichlar yangi, integratsiyalashgan va jozibador iqtisodiy makon shakllanayotganidan dalolat beradi”.

O‘zbekiston va Markaziy Osiyo Yevroosiyoning qoq markazida joylashgan bo‘lib, geografik jihatdan dunyodagi eng yirik qit’aning tabiiy logistika xabi vazifasini bajaradi. Bu omil mintaqaning yaqin istiqbolda dunyodagi eng yirik qit’ada o‘sishning asosiy markazlaridan biriga aylanishi, mintaqalararo yangi qo‘shilgan qiymat zanjirlarini va asosiy bozorlar o‘rtasidagi eng qisqa transport-tranzit yo‘laklarini shakllantirishi uchun katta imkoniyat yaratadi.

Bu esa, avvalo, Markaziy Osiyoning barcha davlati bilan ko‘p yillar davomida izchil sheriklik munosabatlarini rivojlantirib kelayotgan Koreya Respublikasi uchun tashqi hamkorlik borasida misli ko‘rilmagan darajada keng imkoniyatlarni ochib beradi. Ayni shu jihat Koreya Respublikasiga bir vaqtning o‘zida bir nechta mamlakat va tarmoqlarni qamrab oladigan kompleks qo‘shma loyihalarni amalga oshirish uchun noyob imkoniyatlar yaratadi.

Bir vaqtlar mintaqamizni tashqi dunyo bilan bog‘lagan Buyuk Ipak yo‘li faqat savdo yo‘li emas edi. U g‘oyalar, bilimlar, texnologiyalar, san’at va insonlar taqdirini birlashtirgan ulkan magistral bo‘lgan. Bugun esa uni zamonaviy shaklda qayta tiklash uchun oldimizda tarixan nihoyatda qulay imkoniyat paydo bo‘lmoqda. Bu borada Koreya Respublikasi muhim rol o‘ynashi mumkin. Mamlakat ilg‘or sanoat salohiyati, kapital va modernizatsiya tajribasiga ega. Chebollar esa investitsiyalarga keng qamrovda yondashadi. Ular uchun nafaqat alohida mamlakatlarning ichki bozori, balki butun mintaqaning ulkan imkoniyati va afzalliklari g‘oyat muhim.

Shu bois birinchi “Markaziy Osiyo — Koreya Respublikasi” sammiti biz uchun alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston uni nafaqat ko‘p yillik diplomatik hamkorlikning yuksak nuqtasi, balki strategik sheriklikning yangi bosqichiga asos soluvchi muhim qadam sifatida ham nazarda tutadi. Sammitning muhim natijalaridan biri umumiy siyosiy irodani mustahkamlash va kelgusi hamkorlikning uzoq muddatli ustuvor yo‘nalishlarini belgilashga qaratilgan Seul deklaratsiyasining qabul qilinishi bo‘ladi.

Prezidentimiz o‘z maqolasi yakunida davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar nafaqat siyosiy kelishuvlar va iqtisodiy manfaatlarga, balki insonlar o‘rtasidagi ishonchga ham asoslangandagina haqiqatan mustahkam bo‘lishini ta’kidlab, hali O‘zbekistonda bo‘lishga va Markaziy Osiyoni o‘z ko‘zi bilan kashf etishga ulgurmagan koreys xalqiga murojaat qiladi.

“Mamlakatlarimizni fotosuratlar yoki makroiqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari orqali to‘liq anglab bo‘lmaydi. Jumladan, O‘zbekistonni, albatta, ko‘rish va his qilish kerak”, deydi davlatimiz rahbari va barcha koreys do‘stlarimizni sayyoh, shuningdek, hamkor, tadbirkor va talaba sifatida O‘zbekistonning fayzli zaminiga tez-tez tashrif buyurishga taklif etadi.

“Xalq so‘zi”.

AHOLI UCHUN QULAY SHAROITLAR YARATISH – USTUVOR MAQSAD

1 Bunda nafaqat bandlik va daromad masalalari, balki tibbiy yordamga ehtiyoj, ta’lim sohasidagi muammolar, bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlari va to‘garaklarga jalb etish, uy-joy sharoitlarini yaxshilash kabi ijtimoiy masalalarga ham e’tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, “mahalla yettiligi”ning har bir a’zosiga biriktirilgan vazifa va yo‘nalishlardan kelib chiqib, xotin-qizlar muammolari, aholi salomatligi, ijtimoiy faollik bilan bog‘liq masalalar va boshqa dolzarb muammolar aniqlanmoqda.

Xatlov natijalari asosida har bir oila kesimida individual rejalar shakllantirilyapti. Asosiy e’tibor bir martalik moddiy yordam ko‘rsatish emas, balki oilani barqaror va doimiy daromad manbaiga olib chiqishga qaratilmoqda.

Senat Raisi ta’kidlaganidek, kambag‘allikni qisqartirishda umumiy yondashuvdan voz kechib, har bir oilaning imkoniyati, ehtiyoji va muammolaridan kelib chiqib ishlash zarur. Belgilangan vazifalar ijrosini muntazam nazorat qilish, har bir chora-tadbirning aniq natija bilan yakunlanishini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, viloyatda mavjud 18 mingdan ziyod vakant ish o‘rinlaridan samarali foydalanish, ishsizlarni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblarga o‘qitish, mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolar, yoshlar hamda kambag‘allik chegarasida bo‘lgan oilalar bilan manzilli ishlash bo‘yicha mas’ullarning tegishli vazifalari belgilab berildi.

Navoiy viloyatidagi o‘rganishlar doirasida Senat Raisi ishtirokida kambag‘allikni qisqartirish jarayonlarida mahalliy Kengashlar deputatlari va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish masalalari ham muhokama qilindi.

Aholi muammolarini xonadonbay o‘rganish va har bir oila uchun individual reja asosida ishlash jarayonida deputatlik va jamoatchilik nazoratini samarali tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu maqsadda viloyat, tuman va shahar Kengashlarining 270 nafar deputati 310 ta mahallaga manzilli biriktirilgan. Har bir deputatga ijtimoiy reestrdagi oilalar, ishsiz fuqarolar hamda mehnat migratsiyasida bo‘lgan shaxslar bo‘yicha aniq vazifalar yuklatilmoqda.

Deputatlar rahbarligida mahallalar kesimida ishchi guruhlar shakllantirilib, ular tarkibiga Mahallalar uyushmasi, Nuroniy jamg‘armasi, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Yoshlar ishlari agentligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda kasaba uyushmalari vakillari jalb etilgan. Bunday yondashuv orqali har bir oilaning individual rejasida belgilangan ijtimoiy xizmatlar o‘z vaqtida va sifatli ko‘rsatilishi, bandlik va daromadni oshirish bo‘yicha choralar natijadorligi ta’minlanishi nazarda tutilgan.

O‘z navbatida, amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi muntazam monitoring qilinib, har bir hududda aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rib boriladi.

Shu tariqa mahalliy Kengash deputatlari, jamoatchilik va mas’ul tashkilotlarning hamkorligi asosida har bir oila muammosini manzilli hal etish va uning barqaror daromad manbaiga ega bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan tizimli nazorat mexanizmi shakllantiriladi.

Hududlarda belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash, aholi uchun qulay sharoitlar yaratish, mavsumga tayyorgarlik ishlarini kechiktirmasdan yakunlash zarurligi qayd etildi. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar ustidan deputatlik nazoratini yanada kuchaytirish, aniqlangan muammolarni mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda bartaraf etib borish belgilab olindi.

Tanzila Norboyeva boshchiligidagi ishchi guruh Qiziltepa va Nurota tumanlarida aholi bandligini ta’minlash, tadbirkorlik, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish hamda turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan loyihalar bilan tanishdi.

Xususan, Qiziltepa tumanida “SVS Navoiy” MCHJ xususiy korxonasi tomonidan amalga oshirilayotgan lateks qoplamali paxta qo‘lqoplarini ishlab chiqarish loyihasi o‘rganildi. Qiymati 40 mln. dollar bo‘lgan mazkur loyiha to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan amalga oshirilmoqda. Korxona to‘liq quvvatda ishga tushirilganda 700 ta yangi ish o‘rni yaratilishi va yiliga 15 mln. dollarlik mahsulot eksport qilinishi nazarda tutilgan.

Shuningdek, turistik markazlar uchun mahsulot ishlab chiqarayotgan “Akobir Marjona orzusi” MCHJ faoliyati ham o‘rganildi. Tadbirkor Ulashoy Shomiyeva tashkil etgan korxonada kuniga 4 mingtagacha ro‘molcha ishlab chiqarish quvvati yaratilgan. Ayni vaqtda korxonada 35 kishi mehnat qilmoqda. Ular orasida nogironligi bo‘lgan shaxslar, bolalar nafaqasi oluvchilar hamda boquvchisini yo‘qotgan fuqarolar ham bor. Tayyor mahsulotlar Buxoro va Samarqand kabi yirik turistik markazlarga yetkazib berilmoqda.

Tashrif doirasida Nurota tumanida hunarmandchilik, turizm va aholi bandligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar ham o‘rganildi.

Jumladan, tadbirkor Bahora Mamarajabova tashkil etgan zamonaviy kashtachilik korxonasi faoliyati bilan tanishildi. Tadbirkor hunarmandchilikni rivojlantirish uchun yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanib, ishsiz va mehnat migratsiyasidan qaytgan 200 nafar ayolni doimiy ish bilan ta’minlagan. Kashtachilik mahsulotlari ichki bozor bilan bir qatorda xorijiy davlatlarda, xususan, AQSh va Turkiyada ham o‘z xaridorlariga ega.

Nurota tumanining Saidato mahallasida “Ruslan eco service” oilaviy mehmonxona faoliyati ham o‘rganildi. “Chashma” tarixiy-me’moriy majmuasi yaqinida joylashgan mazkur mehmonxona qadimiy uslubda barpo etilgan. Bu yerda sayyohlar uchun maxsus kashtachilik shourumi tashkil qilingan. Saidato mahallasining o‘zida 14 ta mehmon uyi bor. Ularda yuzlab fuqarolar uchun doimiy bandlik imkoniyatlari mavjud.

Aholi va sayyohlar uchun zamonaviy dam olish hamda ko‘ngilochar xizmatlarni yo‘lga qo‘ygan “Malika Karvon Family Park” ekobog‘i faoliyati ham o‘rganildi. Umumiy maydoni uch gektar bo‘lgan mazkur majmua bir vaqtning o‘zida 700 nafar mehmonni qabul qilish imkoniyatiga ega. Loyiha doirasida 150 ta yangi ish o‘rni yaratilgan.

Ishchi guruhi aholi xonadonlari va ijtimoiy soha obyektlarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash masalalariga alohida e’tibor qaratdi. Elektr energiyasi va tabiiy gaz ta’minoti barqarorligini ta’minlash, energiya resurslaridan samarali foydalanish, tarmoqlardagi yo‘qotishlarni kamaytirish, mavsum davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarning oldini olish bo‘yicha zarur choralar ko‘rish muhimligi ta’kidlandi.

Kuz-qish mavsumida uzluksiz va barqaror xizmat ko‘rsatishni ta’minlash maqsadida zarur moddiy-texnik zaxiralarni oldindan shakllantirish, mas’ul tashkilotlar va mutasaddilarning vazifalarini aniq belgilash yuzasidan kerakli ko‘rsatmalar berildi.

Oliy Majlis Senati Raisi hududlarda belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash, aholi uchun qulay sharoitlar yaratish, mavsumga tayyorgarlik ishlarini kechiktirmasdan yakunlash zarurligini aytdi. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar ustidan deputatlik nazoratini yanada kuchaytirish, aniqlangan muammolarni mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda bartaraf etib borish muhimligi ta’kidlandi.

“Xalq so‘zi”.

Uchrashuv

KO‘P QIRRALI VA TENG MANFAATLI ALOQALAR

Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o‘rinbosari Sodiq Safoyev Germaniya Bundestagi deputatlari Peter Felzer va Kristof Birgxan bilan uchrashdi.

Suhbat chog‘ida O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlarning bugungi holati va istiqbollari muhokama qilindi.

Ayniqsa, parlamentlararo muloqot ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, yangi tashabbuslarni ilgari surish hamda qo‘shma loyihalarni amalga oshirishda muhim o‘rin tutayotgani ta’kidlandi.

Germaniya va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida hamkorlikni yanada kengaytirish, shuningdek, ilmiy tadqiqot va ta’lim sohalarida aloqalarni mustahkamlash masalalari yuzasidan fikr almashildi.

O‘z navbatida, Germaniya parlamenti a’zolari O‘zbekiston Markaziy Osiyoning markazida joylashgan, ulkan iqtisodiy va inson salohiyatiga ega davlat sifatida mintaqada muhim o‘rin tutishini ta’kidlashdi. Germaniya O‘zbekiston bilan uzoq muddatli va o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirishdan manfaatdor ekani qayd etildi.

Muloqot yakunida tomonlar belgilangan ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha amaliy hamkorlikni kengaytirish va muntazam aloqalarni davom ettirishga tayyor ekani bildirildi.

“Xalq so‘zi”.

Kelgusi yilda poytaxtga 10 mlrd. dollar investitsiya jalb qilish hamda 150 — 200 mingta yuqori daromadli doimiy ish o‘rni yaratish bo‘yicha aniq reja ishlab chiqiladi.

O‘ZARO ISHONCH VA MUSTAHKAM DO‘STLIK IFODASI



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Koreya Respublikasiga davlat tashrifi O‘zbekiston tashqi siyosatida izchil davom etayotgan ochiqlik, pragmatizm, o‘zaro ishonch va manfaatli hamkorlik tamoyillarining yana bir yorqin ifodasidir.

Ayniqsa, davlatimiz rahbarining Janubiy Koreyaning nufuzli nashrlarida e’lon qilingan “O‘zbekiston va Koreya Respublikasi: o‘zgarishlar davrida kelajak sari intilayotgan hamkorlik” nomli maqolasi ushbu munosabatlarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Unda ikki davlat o‘rtasidagi tarixiy va do‘stona rishtalar, bugungi strategik sheriklik, savdo-investitsiyaviy aloqalar hamda hamkorlikni yangi texnologik bosqichga olib chiqish masalalari chuqur tahlil qilingan.

So‘nggi yillarda mamlakatlarimiz ikki tomonlama savdo hajmining 5 barobarga oshgani, Janubiy Koreyaning O‘zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan investitsiyalari 8 mlrd. dollardan ziyodni tashkil etgani, yurtimizda Koreya Respublikasi kapitali ishtirokida 700 dan ortiq qo‘shma korxona va loyihalar amalga oshirilayotgani — munosabatlarimiz nechog‘li jadal rivojlanayotganining yaqqol dalili. Shuningdek, “KOICA”, Koreya Eksimbanki va “EDCF” bilan hamkorlikdagi loyihalar portfelining 3,5 mlrd. dollardan ortiq ekani ham strategik sheriklikning amaliy mazmunini ko‘rsatib turibdi.

E’tiborli jihati shundaki, bugungi kun tartibida faqat savdo yoki investitsiya hajmini oshirish emas, balki ikki mamlakat iqtisodiyotining o‘zaro to‘ldiruvchan imkoniyatlaridan samarali foydalanib, yangi o‘sish drayverlarini yaratish masalasi turibdi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, endi alohida sohalardagi muvaffaqiyatli hamkorlikdan umumiy ishlab chiqarish tizimlari, texnologik platformalar va yangi bozorlarni shakllantirishga o‘tishimiz zarur.



Bu yondashuv zamonaviy taraqqiyot talablariga to‘liq mosdir. Koreya Respublikasi innovatsiyalar, yuqori texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, sanoat kooperatsiyasi va inson kapitali yo‘nalishida ulkan tajribaga ega. O‘zbekiston esa katta bozor, boy resurslar, qulay geografik joylashuv, yosh va salohiyatli aholi hamda Markaziy Osiyodagi muhim iqtisodiy imkoniyatlarga ega. Ana shu ikki tomon salohiyatining uyg‘unlashuvi kelgusi yillarda yangi iqtisodiy “o‘sish nuqtalari”ni yaratishga xizmat qiladi.

Shu ma’noda, sun’iy intellekt, yarimo‘tkazgichlar, robototexnika, elektr transport vositalari, biofarmatsevtika, “aqlli” qishloq xo‘jaligi va “aqlli” shaharlar kabi yo‘nalishlarni istiqbolli hamkorlik sohalari sifatida belgilab olish juda muhim. Bu loyihalar O‘zbekiston iqtisodiyotini yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, raqamli va texnologik salohiyatimizni oshirish uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Koreya Respublikasiga tashrifi yana bir muhim jihati bilan ahamiyatli: u ikki tomonlama munosabatlar bilan bir qatorda, “Markaziy Osiyo — Koreya Respublikasi” formatidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Bugun Markaziy Osiyo dunyo iqtisodiyotida tobora muhim o‘rin egallab borayotgan mintaqaga aylanmoqda. 2025-yilda mintaqa davlatlarining umumiy yalpi ichki mahsuloti 500 mlrd. dollardan oshgani ham bu salohiyatni yaqqol ko‘rsatadi.

Shunday sharoitda Koreya Respublikasining texnologik va investitsiyaviy imkoniyatlarini Markaziy Osiyoning ulkan bozori, tabiiy va inson resurslari bilan uyg‘unlashtirish nafaqat iqtisodiy, balki strategik ahamiyatga ega. Prezidentimiz tomonidan ushbu formatni yanada tizimli, dinamik va uzoq muddatli mintaqaviy ustuvor vazifalarga yo‘naltirilgan mexanizmga aylantirish borasida ilgari surilayotgan tashabbuslar O‘zbekistonning mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishdagi faol va konstruktiv pozitsiyasini namoyon etmoqda.

Umuman, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan ochiq, pragmatik va tinchlikparvar tashqi siyosatni yuksak baholash zarur. Bugun O‘zbekiston barcha davlatlar bilan o‘zaro hurmat, tenglik, ishonch va umumiy manfaatlar asosida munosabatlarni rivojlantirishga intilmoqda. Bu siyosat mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini yuksaltirish bilan birga, iqtisodiy taraqqiyot, investitsiya, innovatsiya va zamonaviy texnologiyalar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Ishonchim komilki, O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘rtasida shakllangan mustahkam ishonch va strategik sheriklik kelgusida yanada yangi mazmun bilan boyiydi. Hamkorlikning texnologik, investitsiyaviy, ta’lim, ilmiy va innovatsion yo‘nalishlarda kengayishi nafaqat ikki mamlakat xalqlari farovonligiga, balki butun Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik, o‘zaro ishonch va umumiy taraqqiyot muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bugun O‘zbekiston — Janubiy Koreya munosabatlari yangi tarixiy bosqichga kirmoqda. Bu jarayonda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning uzoqni ko‘zlagan, milliy manfaatlarimizga asoslangan, ochiq va pragmatik tashqi siyosati hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Biz, senatorlar mamlakatimiz tashqi siyosatidagi ushbu ezgu va strategik yo‘nalishni qo‘llab-quvvatlaymiz hamda O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘si va nufuzi yanada yuksalib borishiga ishonamiz.

Kobul TURSUNOV,
Oliy Majlis Senatining
Byudjet va iqtisodiy masalalar
qo‘mitasi raisi o‘rinbosari.

MINTAQAVIY HAMKORLIK SARI MUHIM QADAM

O‘zbekiston va Janubiy Koreya xalqlarini yillar sinovidan o‘tgan mustahkam do‘stlik hamda o‘zaro hurmat rishtalari bog‘lab turadi. So‘nggi yillarda davlat rahbarlarining izchil va uzoqni ko‘zlagan siyosati natijasida O‘zbekiston — Janubiy Koreya munosabatlari yangi bosqichga ko‘tarildi.



Ayniqsa, 2019-yilda ikki tomonlama aloqalar alohida strategik sheriklik darajasiga olib chiqilgani muhim voqea bo‘lgandi. Bugun o‘zaro hamkorlik yuqori texnologiyalar, raqamlashtirish, sanoat, energetika, transport, tibbiyot, ta’lim va boshqa ustuvor yo‘nalishlarni qamrab olmoqda. Janubiy Koreyaning O‘zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan investitsiyalari 8 mlrd. dollardan oshgani ham tomonlar ishonchining amaliy ifodasidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Koreya Respublikasi Prezidenti Li Chje Myonning taklifiga binoan 13 — 16-sentabr kunlari ushbu mamlakatga amalga oshirayotgan davlat tashrifi ikki tomonlama munosabatlarni yanada boyitish, alohida strategik sheriklikni yangi mazmun bilan to‘ldirish va hamkorlikning yangi ufqlarini ochish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Tashrifning ilk kunlaridayoq alohida iliq taassurot qoldirgan uchrashuvlardan biri davlatimiz rahbarining Koreya Respublikasida mehnat qilayotgan va tahsil olayotgan vatandoshlarimiz bilan muloqoti bo‘ldi. Prezidentimiz yurtdoshlarimiz bilan samimiy suhbatlashib, ularning bugungi faoliyati, o‘qish jarayoni, erishayotgan yutuqlari va kelgusi rejalari bilan yaqindan qiziqdi. Bu uchrashuv xorijdagi yurtdoshlarimizni qo‘llab-quvvatlash, ularning Vatan bilan aloqalarini mustahkamlash va salohiyatini mamlakatimiz taraqqiyotiga yo‘naltirishga qaratilayotgan e’tiborning yana bir ifodasi bo‘ldi.

Davlat tashrifining siyosiy ahamiyati Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Janubiy Koreyaning nufuzli “The Chosun Daily” va “The Korea Herald” nashrlarida e’lon qilingan “O‘zbekiston va Koreya Respublikasi: o‘zgarishlar davrida kelajak sari intilayotgan hamkorlik” nomli maqolasida ham yaqqol namoyondir. Unda ikki mamlakat o‘rtasidagi do‘stlik va o‘zaro ishonchning tarixiy asoslari, alohida strategik sheriklikning bugungi holati va uni yangi bosqichga olib chiqish istiqbollari keng yoritildi.

Prezidentimiz Koreya Respublikasining qisqa davrda yuqori texnologiyali va farovon davlatga aylangan taraqqiyot tajribasi O‘zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidlab, hamkorlikni sun’iy intellekt, yarimo‘tkazgichlar, robototexnika, elektr transporti, biofarmatsevtika, “aqlli” qishloq xo‘jaligi va “aqlli” shaharlar kabi istiqbolli yo‘nalishlarda kengaytirish zarurligini qayd etdi. Bu yondashuv ikki davlat munosabatlarini an’anaviy hamkorlik doirasidan chiqarib, texnologik va innovatsion sheriklikning yangi bosqichiga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Maqolada ilk marta o‘tkaziladigan “Markaziy Osiyo — Koreya Respublikasi” sammitiga ham alohida e’tibor qaratilib, davlatimiz rahbari ushbu formatni siyosiy muloqotni chuqurlashtirish, amaliy hamkorlikni kengaytirish va sheriklikning yangi, samarali mexanizmlarini shakllantirish uchun muhim platforma sifatida ko‘rayotganini ta’kidlagan. Zero, bugun Markaziy Osiyo va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi munosabatlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqish nafaqat ikki tomonlama, balki keng mintaqaviy manfaatlarga ham javob beradi.

Tashrif dasturida O‘zbekiston — Koreya biznes forumi ham alohida o‘rin tutadi. Davlatimiz rahbarining mazkur nufuzli anjuman ochilishida nutq so‘zlashi ikki mamlakat ishbilarmon doiralari o‘rtasidagi bevosita muloqotni yanada faollashtirish, o‘zaro savdoni kengaytirish va yangi investitsiyaviy tashabbuslarni ilgari surishga katta turtki beradi.

Biznes-forum, avvalo, Koreyaning yetakchi kompaniyalari va moliyaviy institutlarini O‘zbekiston iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlaridagi yangi loyihalarga jalb etish uchun samarali maydondir. Eng muhimi, u yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, yangi ish o‘rinlari yaratish va mahalliy korxonalarning global ishlab chiqarish zanjirlariga integratsiyalashuvi uchun ham yangi imkoniyatlar ochadi.

Prezidentimizning Koreya Respublikasiga davlat tashrifi ikki mamlakat o‘rtasidagi alohida strategik sheriklikni yanada rivojlantirish, siyosiy ishonchni mustahkamlash, iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish va xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Davlatlar o‘rtasidagi boy hamkorlik tajribasi va umumiy maqsadlar esa kelgusida ham munosabatlarni yangi bosqichlarga olib chiqishiga ishonch uyg‘otadi.

Nargiza SALOMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati.

OCHIQ VA PRAGMATIK TASHQI SIYOSATNING YUKSAK SAMARASI

Keyingi yillarda Prezidentimiz rahbarligida ochiq hamda pragmatik tashqi siyosat tamoyillari asosida xorijiy davlatlar bilan o‘zaro manfaatli, ishonchli va uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilyapti.

O‘zbekistonning Koreya Respublikasi bilan izchil rivojlanib borayotgan strategik sherikligi ham ana shu siyosatning amaliy samaralaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Prezidentimizning ushbu mamlakatga davlat tashrifi, uning doirasidagi muzokara va uchrashuvlar strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashi tabiiy.

Ta’kidlash joizki, ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar an’anaviy savdo-iqtisodiy aloqalar doirasidan oshib, sanoat, energetika, transport, raqamli texnologiyalar, ta’lim va ilm-fan, davlat boshqaruvi hamda inson kapitalini rivojlantirish kabi muhim hamda istiqbolli yo‘nalishlarni qamrab olgan keng qamrovli hamkorlik darajasiga ko‘tarilyapti.

Bu esa o‘zaro munosabatlarning strategik ahamiyati tobora ortib borayotganidan dalolat beradi. Buning zamirida, avvalo, o‘zaro ishonch, umumiy manfaatlar va kelajakka mushtarak qarash mujassam.

Muhim savdo-iqtisodiy hamkor

Janubiy Koreya — O‘zbekistonning muhim savdo-iqtisodiy sheriklaridan biri. 2023-yilda ikki mamlakat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 2,5 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda ushbu ko‘rsatkich qariyb ikki barobar oshdi. Bu, shubhasiz, ikki davlat o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar yangi bosqichga ko‘tarilayotganidan dalolat beradi.

Koreya Respublikasining mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritayotgan investitsiyalari ham strategik sheriklikning muhim ko‘rsatkichidir. Bugunga qadar ushbu davlat investitsiyalarining umumiy hajmi 7,5 mlrd. AQSh dollaridan oshgan. Ushbu sarmoyalar sanoat, energetika, qurilish, to‘qimachilik va boshqa ustuvor tarmoqlarda yangi loyihalarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda aholi bandligini ta’minlashga xizmat qilayotir.



Ayniqsa, transport hamda innovatsion texnologiyalar sohasidagi hamkorlik alohida e’tiborga loyiq. Koreys texnologiyalari asosida “KTX” tezyurar poyezdlari uchun 42 ta vagon yetkazib berish bo‘yicha kelishuvning imzolanishi mamlakatimiz temir yo‘l infratuzilmasini modernizatsiyalash, zamonaviy transport xizmatlarini kengaytirish va aholi uchun yanada qulay sharoitlar yaratishda muhim qadam bo‘ldi. Biroq iqtisodiy hamkorlikning haqiqiy hamda uzoq muddatli samarasi, avvalo, inson kapitaliga bog‘liq. Zamonaviy korxona qurish, ilg‘or texnologiyani olib kelish yoki raqamli tizimni joriy etish mumkin. Ammo uni samarali boshqaradigan, yangi sharoitlarga moslashadigan va yanada takomillashtiradigan malakali kadrlar bo‘lmasa, bu imkoniyatlarning samarasi kutilgan darajada bo‘lmasligi mumkin. Shu bois Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri zamonaviy bilim hamda yuksak salohiyatga ega yangi avlod kadrlarini tayyorlashdir.

Bank-moliya akademiyasida xalqaro hamkorlikka ana shu nuqtayi nazardan yondashiladi. Biz uchun xorijiy hamkorlik faqat tajriba almashish yoki xorijiy ta’lim muassasalari bilan aloqa o‘rnatishdan iborat emas. Bu milliy kadrlar salohiyatini yangi bosqichga olib chiqish, ta’lim sifatini xalqaro mezonlar asosida takomillashtirish va ilg‘or tajribani mamlakatimiz amaliyotiga tatbiq etishga qaratilgan strategik mexanizmdir.

Ayni kunlarda akademiya tinglovchilari Janubiy Koreyada xalqaro amaliyot dasturida ishtirok etyapti. Akademiyaning “Handong Global” universiteti bilan hamkorligida tashkil etilgan “2026 BFA G-Bex Korea Orientation” xalqaro amaliyot dasturi doirasida tinglovchilar Koreyaning ta’lim, davlat boshqaruvi, sanoat, energetika, moliya va innovatsiyalar yo‘nalishlaridagi ilg‘or tajribasini bevosita o‘rganayotir.

Ta’lim va amaliyot uzviyligi

Amaliyot jarayonlarining eng muhim jihati — ta’lim va amaliyotning uzviy bog‘langanida. Tinglovchilar xorijiy tajribani faqat ma’ruzalar yoki nazariy materiallar orqali emas, balki bevosita ish jarayonida o‘rganmoqda. Dastur doirasida ular Janubiy Koreyaning yirik sanoat hamda energetika kompaniyalari faoliyati bilan yaqindan tanishib, ishlab chiqarish jarayonlari, zamonaviy texnologiyalar, korporativ boshqaruv va samarali menejment mexanizmlarini o‘zlashtiryapti.

Jumladan, “Doosan Enerbility” kompaniyasiga tashrif davomida tinglovchilar ishlab chiqarish jarayoni, zamonaviy texnologik yechimlar va korxona faoliyatini samarali boshqarish mexanizmlari haqida amaliy bilimlarga ega bo‘ldi. “POSCO” kompaniyasidagi uchrashuvlar esa yirik ishlab chiqarish korxonasida zamonaviy boshqaruv tamoyillari, texnologik jarayonlar, mehnat unumdorligi hamda sanoat taraqqiyotining o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish imkonini berdi.

Bunday hamkorlikning ahamiyati shundaki, tinglovchi nazariy bilimni amaliyot bilan solishtirish, xorijiy kompaniyalarning boshqaruv madaniyatini tahlil qilish va o‘z sohasi uchun zarur ilg‘or yondashuvlarni saralab olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Stajirovkaning iqtisodiy va moliyaviy yo‘nalishi ham alohida ahamiyatga ega. Tinglovchilar Koreya taraqqiyot instituti (KDI)da mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti, strategik rejalashtirish va davlat iqtisodiy siyosatini shakllantirish mexanizmlari bilan tanishmoqda. Va Janubiy Koreya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy rivojlanish uchun aniq strategiya, davlat hamda xususiy sektor o‘rtasidagi samarali hamkorlik, ilm-fan va innovatsiyalarga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda yurtimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, xususiy sektor uchun qulay sharoitlar yaratish, raqobat muhitini kuchaytirish, moliya bozorlari hamda raqamli iqtisodiyotni jadal taraqqiy toptirishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu ma’noda, Koreya tajribasini o‘rganish va uning ilg‘or jihatlarini milliy sharoitimizdan kelib chiqqan holda tatbiq qilish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Tinglovchilarning Koreya birjasi (KRX) hamda Koreya qimmatli qog‘ozlar tizimini kompyuterlashtirish korporatsiyasi (KOSCOM)ga tashrifi ham dasturning muhim qismidir. Bu yerda kapital bozori, fond birjasi faoliyati, raqamli moliyaviy infratuzilma va axborot texnologiyalarining moliya tizimidagi o‘rni haqida amaliy bilimlar egallanmoqda. Raqamlashtirish moliya sohasining kelajagini belgilayotgan asosiy omillardan biri ekanini inobatga olsak, bunday xalqaro tajriba tinglovchilar uchun nihoyatda muhim.

Xalqaro hamkorlik Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga xizmat qiladi. Prezidentimiz tomonidan ta’lim, ilm-fan, innovatsiya hamda inson kapitaliga qaratilayotgan yuksak e’tibor bizdan ham ish uslubimiz va yondashuvlarimizni doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab etadi. Xalqaro hamkorlikni bir martalik tadbirlar bilan cheklashni maqsad qilmaganmiz. Aksincha, uzoq muddatli va natijaga yo‘naltirilgan hamkorlik tizimini shakllantirishga intilyapmiz.

Shu maqsadda Koreya davlat boshqaruvi instituti va boshqa nufuzli ilmiy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalari tobora mustahkamlanmoqda. Bu jarayonda davlat boshqaruvi, zamonaviy iqtisodiyot, moliya, raqamlashtirish, ilmiy tadqiqotlar hamda inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha tajriba almashish uchun yangi imkoniyatlar ishga solinyapti. Akademiyaning “Chonnam” milliy universiteti qoshidagi Mintaqaviy rivojlanish markazi (CRD) bilan aloqalari esa ta’lim va ilmiy tadqiqot salohiyatini hududiy taraqqiyot vazifalari bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan.

Xususan, Namangan viloyatida “Aql markazi” sifatida barqaror energetika va sun’iy intellekt sohalarida ilg‘or ilmiy ishlanmalarni o‘rganish, ularni hududning mavjud imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirish hamda amaliy yechimlarga aylantirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Bu jarayon yurtimizda ilm-fan va ta’limning jamiyat hamda iqtisodiyot taraqqiyotidagi rolini yanada kuchaytirish borasidagi siyosatning amaliy ifodasidir.

Taraqqiyotning ishonchli sarmoyasi

Bugun oldimizga qo‘yayotgan vazifa oddiy mutaxassis tayyorlash emas. Biz mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichida mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladigan, zamonaviy fikrlaydigan, xalqaro tajribani chuqur o‘zlashtirgan va milliy manfaatlarni ustuvor qo‘yadigan yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Zero, Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy qudrati, raqobatbardoshligi va xalqaro maydondagi nufuzi ko‘p jihatdan ana shu kadrlar salohiyatiga bog‘liq.

O‘zbekiston — Janubiy Koreya munosabatlarining eng istiqbolli jihatlaridan biri ham shundaki, biz nafaqat tovar va texnologiyalar, balki bilim, tajriba va taraqqiyot madaniyatini ham almashmoqdamiz. Shu nuqtayi nazardan, Bank-moliya akademiyasining Koreya Respublikasidagi nufuzli ta’lim va ilmiy muassasalar bilan hamkorligi mamlakatimizda yangi avlod rahbarlari hamda moliyachilarini tayyorlash, ularning dunyoqarashi va kasbiy kompetensiyalarini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga qaratilgan uzoq muddatli investitsiyadir.

Biz bugun sifatli ta’lim berar ekanmiz, aslida, ertangi iqtisodiyotni shakllantiryapmiz. Xorijda tajriba orttirayotgan tinglovchi vaqti kelib mamlakatimiz ravnaqiga o‘z bilimi, tashabbusi hamda innovatsion g‘oyalari bilan hissa qo‘shadi. Shu bois O‘zbekiston va Janubiy Koreya o‘rtasidagi strategik sheriklikning yangi bosqichida savdo va investitsiyalar bilan birga, bilim, texnologiya, ilm-fan va inson kapitali sohasidagi hamkorlik hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Zero, eng ishonchli sarmoya insonga va uning bilimi hamda salohiyatiga yo‘naltirilgan sarmoyadir.

Elmurod HOSHIMOV,
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi rektori,
iqtisodiyot fanlari doktori.

Bo‘zsuv kanalining “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasidan Chilonzor tumanigacha bo‘lgan qismida 20 kilometrlik uzluksiz piyodalar yo‘lagi tashkil qilinadi.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 15-sentyabr

Davlat budjeti ijrosi:

MUNOZARALARDA QANDAY MASALALAR KO‘TARILDI?

1 O‘zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, tadbirkorlik va investitsiya muhitini yaxshilash, hududlar salohiyatidan unumli foydalanish hamda aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan choralar o‘z samarasini beryapti.

Xususan, shu yilning birinchi yarmida mamlakat yalpi ichki mahsuloti 8,5 foiz, jumladan, bozor xizmatlari — 16,9, sanoat ishlab chiqarishi — 8,0, qurilish ishlari — 13,8 va qishloq xo‘jaligi — 4,7 foiz o‘sdi. Shuningdek, o‘tgan davrda iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan.



Munozaralar davomida erishilgan natijalar O‘zbekistonda iqtisodiy rivojlanish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, eng avvalo, aholi turmush sharoiti va farovonligini yuksaltirish, barqaror daromad manbalarini ko‘paytirish va kambag‘allikni qisqartirish borasida olib borilayotgan izchil islohotlarning samarasi ekanligi alohida qayd etildi.

Fraksiya a’zolari mamlakatda amalga oshirilayotgan makroiqtisodiy islohotlarni, budjet daromadlarining barqaror o‘sishini, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash va ular uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni ijobiy baholadi.

Shu bilan birga, budjet mablag‘larini ajratishda natijadorlik va maqsadli indikatorlarga erishish ustidan monitoringni kuchaytirish, investitsiya dasturlariga kiritilgan obyektlarni foydalanishga topshirish muddatlariga qat’iy rioya etish, soliq va bojxona imtiyozlarining samaradorligini har bir soha va korxona kesimida chuqur tahlil qilish bo‘yicha takliflar berildi.

Elektorat manfaatlariga alohida urg‘u qaratildi

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida Hukumat hisoboti atroflicha ko‘rib chiqildi.

Qayd etilganidek, ta’lim tizimi muassasalarini saqlash va ularni rivojlantirish xarajatlariga Davlat budjetidan ajratilayotgan mablag‘lar miqdori o‘tgan yilning mos davridagiga nisbatan 5,4 trln. so‘mga yoki 12,4 foiz oshib, 49,5 trln. so‘mni tashkil etgan. Soha xarajatlarining 68,7 foizi umumiy ta’limga, 18,6 foizi maktabgacha ta’limga va 12,7 foizi kadrlar tayyorlashga yo‘naltirilgan.

Hisobot davrida boshlang‘ich bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim muassasalarida qulay sharoit yaratish maqsadida jami 150 ta shunday muassasada qurilish-ta’mirlash ishlarini amalga oshirish uchun 406,4 mlrd. so‘m moliyalashtirilgan bo‘lsa, umumta’lim sohasiga 2026-yilning birinchi yarmida 34 trln. so‘m yoki 2025-yilning mos davridagiga nisbatan 3,2 trln. so‘m ko‘p mablag‘ yo‘naltirilgan. O‘z navbatida, sohaga ajratilayotgan mablag‘larning yildan-yilga o‘sib borishiga o‘qituvchilarning mehnatiga haq to‘lash miqdorlarining oshirib borilishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Fraksiya a’zolari hisobot bilan batafsil tanishganidan so‘ng o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldi. Jumladan, Dilnoza Azizova madaniy meros obyektlarini asrash bilan bog‘liq masalani ko‘tardi. Deputat mazkur qadimiy obidalarni restavratsiya qilish, ta’mirlash-tiklash bilan bog‘liq arxeologik ishlar xarajatlari uchun 77,6 mlrd. so‘m ajratilgani haqidagi ma’lumotni keltirib, uning hisobidan qanday ishlar amalga oshirilgani va mablag‘ qanchalik darajada ehtiyojni qoplayotgani bilan qiziqdi.

Deputat Nigora Lutfullayeva esa maktablarni zarur sport jihozlari bilan ta’minlash masalasiga to‘xtalib, buning uchun ajratilgan mablag‘ to‘la o‘zlashtirilmayotganini ta’kidladi va tegishli vazirlikdan buning sabablari bo‘yicha izoh so‘radi.

Hukumat vakillari ayrim savollarga batafsil javob qaytardi, ayrimlariga qo‘shimcha ma’lumot berilishini ma’lum qildi.

Savol-javoblardan so‘ng muhokamadagi masala qo‘llab-quvvatlandi.

Mablag‘larni o‘zlashtirish sur’ati nega past?

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida sog‘liqni saqlash sohasiga ajratilayotgan mablag‘lar va ulardan foydalanish samaradorligi atroflicha muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, 2026-yilning birinchi yarmida tibbiyot sohasiga Davlat budjetidan 22,7 trln. so‘m ajratilgan. Bu o‘tgan yilning mos davridagiga nisbatan 2,8 trln. so‘m ko‘p. Ushbu mablag‘lar hisobidan 3 839 ta tibbiyot muassasasi faoliyati ta’minlanmoqda. Tibbiyot xodimlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarga 13 trln. 64,6 mlrd. so‘m, dori-darmon va zararsizlantiruvchi vositalarga 1 trln. 689,1 mlrd. so‘m yo‘naltirilgan. Biroq ayrim tibbiy dasturlarda mablag‘larni o‘zlashtirish darajasi pastligi fraksiya deputatlarining tanqidiy e’tiroziga sabab bo‘ldi. Xususan, allergik kasalliklarga chalingan bemorlarni zarur dori vositalari bilan ta’minlash dasturida ijro 20 foiz darajasida qolgan. Orfan va irsiy-genetik kasalliklarga chalingan bolalarga tibbiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatish yo‘nalishida ham mablag‘larni o‘zlashtirish past bo‘lgan.

Deputatlar bunday kechikishlarga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini ta’kidlashdi. Jumladan, fraksiya a’zosi Manzura Salimova kam uchraydigan va irsiy kasalliklarga chalingan bolalar uchun zarur dori-darmon va tibbiy vositalarni xarid qilish jarayonida byurokratik kechikishlarga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini, bu partiyaning har bir inson uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatini ta’minlashga qaratilgan dasturiy maqsadlariga bevosita mos kelishini qayd etdi.

Muhokamada aholini ijtimoiy himoya qilish masalalariga ham alohida e’tibor qaratilib, ijtimoiy to‘lovlarning manzilliligi va samaradorligini yanada oshirish, davlat ko‘magi haqiqatan ham ehtiyojmand fuqarolarga o‘z vaqtida yetib borishini ta’minlash muhimligi qayd etildi.

Yig‘ilishda fraksiya a’zolari Davlat budjetining ijtimoiy yo‘naltirilganligini, ajratilayotgan mablag‘lar hajmining ortib borayotganini ijobiy baholadi. Ayni vaqtda, mablag‘larning maqsadli, o‘z vaqtida va natijador sarflanishi ustidan parlament nazoratini kuchaytirish zarurligi ta’kidlandi.

Ijtimoiy sohani moliyalashtirish doimiy e’tiborda

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida dastlab deputatlar Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlarining 2026-yil birinchi yarmidagi ijrosiga oid Hukumat hisobotini ko‘rib chiqdi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi mutasaddilari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, joriy yilning yanvar — iyun oylarida mamlakat iqtisodiyotida yuqori o‘sish kuzatilgan. Xususan, yalpi ichki mahsulot hajmi 8,5 foiz oshib, 1 072,7 trln. so‘mni tashkil etgan.

Davlat budjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy sohaga yo‘naltirilgan mablag‘lar salmog‘i yuqori bo‘lib, ularning ulushi 51,5 foizni tashkil etgan. Bu ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va boshqa ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi.

O‘zXDP fraksiyasi a’zolari mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlar, avvalo, partiya Saylovoldi dasturida belgilangan vazifalarning ijrosi va elektorat manfaatlari nuqtayi nazaridan natijadorligiga e’tibor qaratdi. Jumladan, deputat Shokirjon Ahmedov maktabgacha va maktab ta’limi tizimi mutasaddilariga maktablarda darsliklarni yangilash, yangi o‘quv yilida o‘quvchilarni darsliklar hamda sport jihozlari bilan ta’minlash holati yuzasidan savollar berdi.

Fraksiya a’zosi Qizilgul Qosimova esa sog‘liqni saqlash sohasidagi muhim masalalarga e’tibor qaratdi. Xususan, onkologik, kam uchraydigan (orfan) hamda irsiy-genetik kasalliklarga chalingan bolalarga tibbiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatish, onalar va bolalar, reproduktiv yoshdagi ayollar salomatligini muhofaza qilish, yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish va davolashga ajratilgan mablag‘larni o‘zlashtirish darajasi pastligining sabablari haqida ma’lumot so‘radi.

Savollarga Hukumat vakillarining javoblari tinglanar ekan, deputatlar budjet mablag‘laridan samarali va manzilli foydalanish, ayniqsa, aholi uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy sohalarga ajratilgan mablag‘larning o‘z vaqtida va to‘liq o‘zlashtirilishini ta’minlash zarurligini ta’kidlashdi.

Yig‘ilishda “Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorining maqomi to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ham ko‘rib chiqildi.

Muhokama davomida fraksiya a’zosi Anvarxon Temirov profilaktika va yo‘l harakati xavfsizligi inspektorlarining huquqbuzarlik sodir etilgan hollarda qo‘llaydigan ta’sir choralarini belgilash mexanizmlari qanchalik aniq tartibga solinayotgani bilan qiziqdi. Shuningdek, profilaktika inspektori nazoratidagi hududda bir vaqtning o‘zida ikki huquqbuzarlik sodir qilinganda uning harakatlari qanday tartibda amalga oshirilishi masalasiga oydinlik kiritish zarurligini qayd etdi.

Kun tartibidagi masalalar muhokamasi yakunida tegishli qarorlar qabul qilindi.

Ekologiyada natijadorlik muhim

O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida ta’kidlanganidek, hisobot davrida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish yo‘nalishiga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi, uning tizim tashkilotlarini saqlash hamda atrof-muhit muhofazasi tadbirlari uchun respublika budjetidan mablag‘lar ajratilishi ta’minlangan. Mazkur mablag‘larning 274 mlrd. so‘mi yangi ochilgan Umummilliy ekologik muammolarni bartaraf etish maqsadli jamg‘armasiga yo‘naltirilgan.

Ushbu jamg‘arma mablag‘lari hisobidan hayvonot va o‘simlik dunyosi hamda muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar davlat kadastrlarini yuritish bo‘yicha ishlar amalga oshirilayotir. Shuningdek, tabiiy hududlarda suvning muhofaza zonalarini belgilash va biologik xilmaxillikni hisobga olishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Yig‘ilishda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar ham qayd etildi. Hisobot davrida ushbu loyiha doirasida 104 gektar maydonda yashil bog‘lar barpo qilinib, 183 ming tup ko‘chat ekilgan. Shuningdek, 21,7 ming gektar maydonda daraxt va butalarni kasallik hamda zararkunandalardan himoya qilish tadbirlari amalga oshirilgan. Cho‘llanish va qum ko‘chishining oldini olish maqsadida hisobot davrida 1 007 gektar maydonda himoya o‘rmonzorlari yaratilgan. O‘rmon xo‘jaliklari tomonidan 8,6 mln. tup ko‘chat yetishtirilgani ham aytildi.

Fraksiya a’zolari Davlat budjeti xarajatlarini



“yashil” budjetlashtirish tamoyillari asosida baholash natijalariga ham e’tibor qaratdi. Hisobotga ko‘ra, 2026-yil birinchi yarmida jami 205,6 trln. so‘mlik budjet xarajatlari ushbu tamoyillar asosida tasniflangan.

Shuningdek, chiqindilarni boshqarish bo‘yicha ko‘rsatkichlar ham muhokama qilindi. Hisobot davrida aholining maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmati bilan qamrab olinganlik darajasi 64 foizni, chiqindilarni qayta ishlash esa 6,5 foizni tashkil etgan. Yil yakuniga qadar chiqindilarni saralash va qayta ishlash infratuzilmasini kengaytirish, poligonlarni rekultivatsiya qilish hamda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ishlarni davom ettirish belgilangan.

Muhokamada, shuningdek, budjet mablag‘laridan ekologik maqsadlarda foydalanishda natijadorlikka erishish, amalga oshirilayotgan loyihalarning samaradorligini ko‘tarish hamda belgilangan ko‘rsatkichlarning o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash muhimligi qayd etildi.

“Xalq so‘zi”.

Sport

19-sentabr — 4-oktabr kunlari Yaponiyada qit’amizning kuchli sportchilari ishtirok etadigan xalqaro musobaqa — Osiyo o‘yinlari bo‘lib o‘tadi. Shuningdek, 18 — 24-oktabr kunlari esa V Paraosiyo o‘yinlari o‘tkaziladi. Mazkur ikki yirik turnir turli xalqlarni sport orqali birlashtirish, do‘stlik va hamkorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

20th Asian Games
Aichi-Nagoya 2026

OSIYO O‘YINLARI — TINCHLIK VA HAMJIHATLIK BAYRAMI



Osiyo o‘yinlarining tarixi XX asr o‘rtalariga borib taqaladi. Birinchi Osiyo o‘yinlari 1951-yilda Hindistonning Dehli shahrida o‘tkazilgan. Dastlabki musobaqada sport turlari va ishtirokchi davlatlar soni nisbatan kam bo‘lgan. Keyingi yillarda Osiyo o‘yinlari tobora rivojlanib, dunyodagi nufuzli mintaqaviy sport musobaqalaridan biriga aylandi. Qolaversa, u turli mamlakatlar vakillarining bir-biri bilan madaniy almashinuvi va do‘stona munosabatlar o‘rnatishi uchun ham katta imkoniyat yaratadi. Shu ma’noda, Osiyo o‘yinlari sport bayrami bo‘lish bilan birga, tinchlik va hamjihatlikni targ‘ib qiluvchi muhim tadbirdir.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishgach muntazam ravishda Osiyo o‘yinlarida qatnashib, medallar jamg‘arishda doim yetakchilardan biri bo‘lib kelmoqda. Ayniqsa, boks, dzyudo, kurash, yengil atletika, og‘ir atletika sport turlarida yurtimiz vakillari yuqori natijalarga erishib, Vatanimiz sharafini munosib himoya qilayotir.

Navbatdagi yirik turnir Yaponiyaning Aichi prefekturasi va Nagoya shahri mezbonligida kechadigan bahslarda qit’aning 45 ta mamlakatidan vakillar qatnashishi kutilyapti. Xususan, O‘zbekiston sport delegatsiyasi Osiyo o‘yinlarida 42 ta sport turida 396 nafar — 224 erkak va 172 ayol sportchi bilan ishtirok etadi. Oldingi sakkizta musobaqada yurtimiz vakillari 105 ta oltin, 138 ta kumush va 171 ta bronza — jami 414 ta medalni qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘lgan.

Kuni kecha poytaxtimizdagi Respublika olimpiya va paralimpiya shon-shuhrati muzeyida O‘zbekiston sport delegatsiyalarini “Aichi-Nagoya — 2026” XX yozgi Osiyo va V Paraosiyo o‘yinlariga tantanali kuzatish marosimi tashkil qilindi.



Tadbirda so‘z olganlar bo‘lajak mas’uliyatli bahslarda sportchilarimizga omad va muvaffaqiyatlar tiladi. Shuningdek, atletlarimiz hamda murabbiylar qit’amiz sportidagi yilning bosh startiga jiddiy tayyorgarlik ko‘rgani va bildirilgan ishonchni oqlash uchun bor imkoniyatlarini ishga solishini aytib o‘tdi.

Marosimda og‘ir atletika bo‘yicha “Tokio — 2020” Olimpiadasi chempioni, “Parij — 2024” sovrindori Akbar Jo‘rayev Olimpiya sport turlari va paravelosport bo‘yicha jahon chempioni Marjona Pardaboyeva Paralimpiya sport turlari nomidan O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘ini qabul qilib olishdi.

Shuningdek, tadbir doirasida Osiyo o‘yinlaridagi ishtirokka bag‘ishlangan matbuot anjumani bo‘lib o‘tdi. Ta’kidlanganidek, O‘zbekiston terma jamoasi joriy Osiyo o‘yinlarida 42 ta sport turi bo‘yicha qatnashadi. Shundan 36 tasi Olimpiya dasturidan o‘rin olgan. Sportchilarimiz ilk bor sohil voleyboli, voleybol, yelkanli sport, skvosh va MMA kabi turlarda debyut qiladi. Shuningdek, musobaqalar davomida kamondan otish, chim ustida xokkey, tennis, serfing, triatlon va skvosh bo‘yicha “Los-Anjeles — 2028” yozgi Olimpiya o‘yinlariga yo‘llanmalar uchun bahslar ham bo‘lib o‘tadi.

Marosimda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov, shuningdek, Sport vazirligi, Milliy olimpiya va Paralimpiya qo‘mitalari rahbariyati, sportchi va murabbiylar, faxriylar, katta sport jamoatchiligi ishtirok etdi.

Sunnatilla ISLOMOV
(“Xalq so‘zi”).



URUG‘LIK KARTOSHKA IMPORTI KAMAYTIRILADI

Nishon tumanining Turkmaniston bilan chegaradosh olis hududida yuqori sifatli urug‘lik kartoshka yetishtirish bo‘yicha yirik loyihaga kirishildi.

Intilish

Sir emas, hozirgi kunda mamlakatimizga sifatli kartoshka urug‘larining asosiy qismi xorijiy davlatlardan keltiriladi. Vaholanki, uni o‘zimizda yetishtirish imkoni bor. “Bulung‘ur — agrostar” mas’uliyati cheklangan jamiyati hamda mahalliy tadbirkor hamkorligida amalga oshirilayotgan loyihaning maqsadi ham shunga qaratilgan.

Ushbu loyiha doirasida cho‘l hududidan 400 gektar yer o‘zlashtirilib, Qarshi magistral kanalidan 7 kilometr masofaga nasoslar orqali suv olib kelindi. Zarur infratuzilma tarmoqlari barpo etildi. Ayni paytda zamonaviy texnologiyalar yordamida yomg‘irlatib sug‘orish tizimi yo‘lga qo‘yilib, Niderlandiyadan olib kelingan kartoshka urug‘lari ekilmoqda.

— O‘tgan yili “Bulung‘ur — agrostar” MCHJ bilan hamkorlikda sifatli urug‘lik kartoshka yetishtirish bo‘yicha ikkita loyihani amalga oshirdik, — deydi xorijlik mutaxassis Haniy Ali. — Birinchisi, Misrdan olib kelingan kichik tuganaklardan urug‘lik olish bo‘lsa, ikkinchisi, Niderlandiyadan keltirilgan elita navli kartoshka urug‘larini shu yerda ko‘paytirishga qaratilgan. Har ikkalasidan kutilgan natijalar olindi. Endilikda Nishon tumanida ham yuqori sifatli kartoshka urug‘larini yetishtirishga kirishdik.

Jahongir BOYMURODOV
(“Xalq so‘zi”).

2026-2027-yilgi kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish maqsadida Toshkent shahrida issiq suv ta’minoti rejali ravishda 5 kungacha o‘chirib boriladi. O‘chirishlar sentabr-oktabr oylarida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 429. Buyurtma G-942. 19 207 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir G‘. Bahromov.
Musahhih Sh. Marshabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni – 20.35 Topshirildi – 23.41 1 2 3 4 5 6